

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
VAZIRLIGI MARKAZIY APPARATIGA ISHGA QABUL QILISH UCHUN
BARCHA NOMZODLARGA QO‘YILADIGAN UMUMIY
MALAKAVIY VA SHAXSIY TALABLAR

1. Iqtisodiyot, moliya, soliq, bank, shuningdek yuridik xizmat yo‘nalishlarida oliy ma‘lumotga ega bo‘lish (xorijiy va xalqaro oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan nomzodlarga afzallik beriladi);

2. Ingliz va o‘zbek tillarini bilish (IELTS sertifikatiga ega bo‘lgan (kamida 6 ball) nomzodlar ijobiy baholanadi);

3. Kompyuter savodxonligi, jumladan Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarini bilish;

4. Mehnatsevarlik va o‘z vazifasiga mas‘uliyat bilan yondashish;

5. Professional etiket, hamkasblarga hurmat bilan qarash;

6. Muomala va muzokara madaniyati;

7. O‘z fikr-mulohazalarini hamda takliflarini taqdim qila olish qobiliyati.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA TARTIBI

1-bosqich: Yuqoridagi talablarga javob beradigan nomzod **aruziqulova@mineconomy.uz** elektron manziliga o‘zbek va ingliz tillaridagi ma‘lumotnomasini (Ilovaga muvofiq word shaklida) hamda nima uchun aynan shu lavozimda ishlash istagi borligi to‘g‘risida insho (esse)ni o‘zi mukammal bilgan xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va hokazo) va o‘zbek tillarida (kamida ikki varaqda Times New Roman 13-shriftida) yozib, **2021- yilning 11-yanvariga** qadar yuborishi kerak. Bunda, insho (esse)ni xorijiy tilda yozish faqat xorijiy tillarni mukammal biladigan nomzodlardan so‘raladi.

2-bosqich: **10 (o‘n)** ish kuni ichida ishchi guruhi tomonidan nomzodlarning ma‘lumotnomalari va insholar o‘rganib chiqiladi. Qo‘yilgan talablarga javob bergan va keyingi bosqichga o‘tgan nomzodlar bilan onlayn suhbat o‘tkazish kuni to‘g‘risida vazirlikning **www.mineconomy.uz** rasmiy veb-saytida e‘lon beriladi.

3-bosqich: Onlayn suhbat o‘tkazilgan kundan boshlab **20 (yigirma)** ish kuni ichida tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar to‘g‘risida rasmiy veb-sayt orqali ma‘lumot beriladi.

DIQQAT!!!

**QUYIDAGI HOLLARDA NOMZODLARNING ANKETALARI KO'RIB
CHIQLIMAYDI:**

- **NOMZODLAR ILOVAGA MUVOFIQ MA'LUMOTNOMA BILAN INSHO (ESSE)NI TAQDIM ETMAGAN HOLLARDA;**
- **INSHO (ESSE)LARIDA AYNAN QAYSI DEPARTAMENT, QAYSI BOSHQARMA VA BO'LIMDA HAMDA LAVOZIMDA ISHLASH UCHUN TANLOVDA ISHTIROK ETISHLARI KO'RSATILMAGAN TAQDIRDA;**
- **BOG'LANISH UCHUN TELEFON RAQAMI HAMDA ELEKTRON MANZILLARI ANIQ KO'RSATILMAGANDA.**

Ishchi guruh tomonidan tanlov va tanlov natijalari haqidagi barcha ma'lumotlar faqat vazirlikning www.mineconomy.uz rasmiy veb-sayti orqali nomzodlarga yetkaziladi.

Ishchi guruh bilan bog'lanish uchun (+99871)232-64-29, (+99871) 232-65-40 telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.

МАЪЛУМОТНОМА (14-шрифт)

**3x4 рангли
фотосурат**

Ботир Баҳодирович Эшматов (14-шрифт)

2012 йил 20 февралдан

Суд департаменти Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси

суд қарорларини ижро этиш бўлимнинг етакчи инспектори (11-шрифт)

Туғилган йили:

20.08.1985 (11-шрифт)

Туғилган жойи:

Сирдарё вилояти
Гулистон шаҳри
(11-шрифт)

Миллати:

ўзбек (11-шрифт)

Партиявийлиги:

йўқ (11-шрифт)

Маълумоти:

олий (11-шрифт)

Тамомлаган:

2006 й. Тошкент давлат иқтисодиёт университети
(бакалавр) (11-шрифт)

Маълумоти бўйича мутахассислиги:
(11-шрифт)

иқтисодчи
(11-шрифт)

Илмий даражаси:

йўқ (11 шрифт)

Илмий унвони:

йўқ
(11-шрифт)

Қайси чет тилларини биледи (тўлиқ кўрсатилиши лозим):

рус, инглиз тилларини (11-шрифт)

Давлат мукофотлари билан тақдирланганми (қанақа):

Йўқ (11-шрифт)

**Халқ депутатлари республика, вилоят, шаҳар ва туман Кенгаши депутатими
ёки бошқа сайланадиган органларнинг аъзосими (тўлиқ кўрсатилиши лозим):**

йўқ (11-шрифт)

МЕҲНАТ ФАОЛИЯТИ (14-шрифт)

2002-2006 йй. - Самарқанд Давлат университети талабаси (11-шрифт)

2006-2008 йй. - Сирдарё вилояти Гулистон туман суд ижрочилари бўлинмасининг суд ижрочиси
(11-шрифт)

2008-2010 йй. - Сирдарё вилояти Боёвут туман суд ижрочилари бўлимнинг катта суд ижрочиси
(11-шрифт)

2010-2012 йй. - Суд департаменти Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси суд қарорларини ижро этиш
бўлимнинг инспектори (11-шрифт)

2012 й.-ҳ.в. - Суд департаменти Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси суд қарорларини ижро этиш
бўлимнинг етакчи инспектори (11-шрифт)

YANGIDAN TASHKIL ETILAYOTGAN
XUSUSIY SEKTORNI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH
BOSHQARMASIGA

1. Boshqarma boshlig‘i

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

1. Iqtisodiyot, moliya, soliq, bank, shuningdek yuridik xizmat yo‘nalishlarida kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lish;

2. Vazirlik va idoralarning davlat boshqaruvidagi samarasiz hamda eksklyuziv funksiya va vakolatlarini xususiy sektorga o‘tkazish imkoniyati mavjudligi va iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganishlar olib borish va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

3. Davlat funksiyalarini outsorsing, kraudsorsing, davlat ijtimoiy buyurtmasi, akkreditatsiya, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish hamda davlat boshqaruvi sohasida xorijiy tajribani tahlil qilgan holda takliflarni ishlab chiqish, analitik va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish;

4. Xususiy sektorga o‘tkazilgan davlat funksiyalarining samaradorlik jihatdan tahlilini o‘tkazgan holda davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish tartibini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish yondashuvlariga ega bo‘lish.

Vazifalar:

1. Vazirlik va idoralarning davlat boshqaruvidagi samarasiz funksiya va vakolatlarini xatlovdan o‘tkazish hamda ularni xususiy sektorga o‘tkazish nuqtai nazaridan tahlil qiladi;

2. Xususiy sektorga o‘tkazilishi taklif etilayotgan davlat funksiyalarining ro‘yxatini shakllantirish hamda ularning mazmun-mohiyatini xususiy sektorga moslashtirgan holda aniqlashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi;

3. Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun xususiy sektor faolligini rag‘batlantirish choralari ishlab chiqadi;

4. Davlat funksiyalarini outsorsing, kraudsorsing, davlat ijtimoiy buyurtmasi, akkreditatsiya, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish hamda davlat boshqaruvi sohasida amalda mavjud imkoniyatlarni kengaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

5. Davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish tartibini takomillashtiradi.

2. Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

1. Iqtisodiyot, moliya, soliq, bank, shuningdek yuridik xizmat yo‘nalishlarida kamida 3 yillik ish stajiga ega bo‘lish;

2. Vazirlik va idoralarning davlat boshqaruvidagi samarasiz hamda eksklyuziv funksiya va vakolatlarini xususiy sektorga o‘tkazish imkoniyati mavjudligi va iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganishlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

3. Davlat funksiyalarini autsorsing, kraudsorsing, davlat ijtimoiy buyurtmasi, akkreditatsiya, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish hamda davlat boshqaruvi sohasida xorijiy tajribani tahlil qilgan holda takliflarni ishlab chiqish, analitik va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish;

4. Xususiy sektorga o'tkazilgan davlat funksiyalarining samaradorlik jihatdan tahlilini o'tkazgan holda davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Vazifalar:

1. Vazirlik va idoralar kesimida xususiy sektorga o'tkazilishi mumkin bo'lgan davlat funksiyalarini tahlil etish mexanizmlarini yo'lga qo'yishga qaratilgan davlat funksiyalarining yagona reestrini shakllantiradi hamda uni yuritadi;

2. Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun xususiy sektorning taklif va mulohazalarini o'rganadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi;

3. Xususiy sektorda zarur resurslar va infratuzilma, shuningdek malakali kadrlar mavjudligi nuqtai nazaridan tahlil o'tkazadi;

4. Davlat funksiyalari amalga oshirilganligi natijalari bo'yicha xususiy sektorning ma'lumotini umumlashtiradi va tahlil qiladi, shuningdek umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida ular amalga oshirilganligining samaradorligi va sifatini baholaydi;

5. Xususiy sektor tomonidan davlat funksiyalari samarasiz yoki sifatsiz amalga oshirilishida kamchiliklarni bartaraf etish hamda o'tkazilgan davlat funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqadi;

6. Xususiy sektorga o'tkazilishi taklif etilayotgan davlat funksiyalari, shuningdek xususiy sektorning tegishli takliflarini e'lon qilish va muhokamadan o'tkazish uchun elektron maydoncha faoliyatini yuritib boradi.

3. Bosh mutaxassis

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

1. Iqtisodiyot, moliya, soliq, bank, shuningdek yuridik xizmat yo'nalishlarida kamida 2 yillik ish stajiga ega bo'lish;

2. Vazirlik va idoralarning davlat boshqaruvidagi samarasiz hamda eksklyuziv funktsiya va vakolatlarini xususiy sektorga o'tkazish imkoniyati mavjudligi va iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan o'rganishlar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish;

3. Davlat funksiyalarini autsorsing, kraudsorsing, davlat ijtimoiy buyurtmasi, akkreditatsiya, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish hamda davlat boshqaruvi sohasida xorijiy tajribani tahlil qilgan holda takliflarni ishlab chiqishda ishtirok eta olish;

4. Xususiy sektorga o'tkazilgan davlat funksiyalarining samaradorlik jihatdan tahlilini o'tkazgan holda davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish tartibini takomillashtirishda ishtirok etish.

Vazifalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Vazirlik tomonidan beriladigan ko'rsatma va topshiriqlarining o'z muddatlarida sifatli bajarilishini ta'minlaydi;

2. Boshqarma faoliyatiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va kelishishda qatnashadi;

3. Xususiy sektorga o‘tkazishga taklif etilayotgan davlat funksiyalarining ro‘yxatini shakllantirish hamda ularning mazmun-mohiyatini xususiy sektorga moslashtirgan holda aniqlashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

4. Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun xususiy sektor faolligini rag‘batlantirish choralarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

5. Mutasaddi vazirlik va idoralardan zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rab oladi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi yuzasidan axborot-tahliliy materiallar tayyorlaydi.

4. Yetakchi mutaxassis

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

1. Vazirlik va idoralarning davlat boshqaruvidagi samarasiz hamda eksklyuziv funktsiya va vakolatlarini xususiy sektorga o‘tkazish imkoniyati mavjudligi va iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganishlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

2. Davlat funksiyalarini autsorsing, kraudsorsing, davlat ijtimoiy buyurtmasi, akkreditatsiya, sertifikatlashtirish va boshqa usullar orqali bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkazish hamda davlat boshqaruvi sohasida xorijiy tajribani tahlil qilgan holda takliflarni ishlab chiqishda ishtirok eta olish;

3. Xorijiy ilg‘or tajribalarni qo‘llagan holda ishlarni tashkillashtirish, analitik va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish, o‘z qarashlarini himoya qila olish va rahbariyat topshiriqlarini sifatli va o‘z vaqtida bajarish.

Vazifalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Vazirlik tomonidan beriladigan ko‘rsatma va topshiriqlarining o‘z muddatlarida sifatli bajarilishini ta’minlaydi;

2. Boshqarma faoliyatiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va kelishishda qatnashadi;

3. Xususiy sektorga o‘tkazishga taklif etilayotgan davlat funksiyalarining ro‘yxatini shakllantirish hamda ularning mazmun-mohiyatini xususiy sektorga moslashtirgan holda aniqlashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

4. Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun xususiy sektor faolligini rag‘batlantirish choralarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

5. Mutasaddi vazirlik va idoralardan zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rab oladi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi yuzasidan axborot-tahliliy materiallar tayyorlaydi.